

IJTIMOYIY TARMOQLAR HAQIDA TAHLIL VA MULOHAZALAR

Baxtiyor Axmedov

Andijon davlat pedagogika instituti

2-bosqich magistranti

***Annotatsiya:** Hozirda ijtimoiy tarmoqlar uchun son–sanoqsiz variantlar shu darajada ko‘paydiki, bu esa ularni integral belgilarini hisobga olgan holda taxminan guruhlariga bo‘lish va tasniflashni taqozo qiladi. Ijtimoiy tarmoqlarning asosiy xususiyati shundaki, bu maydonda foydalanuvchi ham, tomoshabin ham, ma’lumot manbai hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:** ijtimoiy tarmoq, internet, aloqa vositalari, tasniflash, integral belgilar, foydalanuvchi.*

Ijtimoiy tarmoqlar – bu har qanday formatda (matn, rasm, musiqa, video) ma’lumot almashish imkonini beradigan va kontentli umumiy platformada potentsial yoki hozirgi foydalanuvchilar qiziqishini shakllantiradigan internet –resurslar.

Hozirgi vaqtda ko‘pchilik odamlar ijtimoiy tarmoqlardan axborotni targ‘ib qilish, muloqot qilish, sotish va tarqatish uchun faol foydalanadilar. Ijtimoiy tarmoqlarning asosiy xususiyati shundaki, bu maydonda foydalanuvchi ham, tomoshabin ham, ma’lumot manbai hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, tomoshabinlar bilan muloqot juda soddalashtirilgan va o‘quvchi yoki mijozdan fikr –mulohaza olish – atigi ikki daqiqa.

Ko‘p odamlar ijtimoiy tarmoqlarga salbiy qarashlariga qaramay, vaqtni behuda sarflash deb hisoblasalar–da, Internet paydo bo‘lganidan beri ijtimoiy tarmoqlar muhim ishlarni amalga oshirdilar.

Shaxslararo internet muloqotining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat degan savol tug‘iladi. D.Rustamov ijtimoiy tarmoqlarning boshqa muloqot shakllaridan quyidagi differensial belgilariga ko‘ra farqlanishini keltirib o‘tgan:

1. Anonimlik. Kommunikantlar o‘zi haqidagi ma’lumotlarni istalgan chegarada taqdim etishi yoki umuman taqdim etmasligi mumkin. Bundan tashqari, yolg‘on ma’lumot taqdim etish yoki asl ma’lumotlarni yashirish holatlari ham mavjud. Natijada tarmoqdagi odam so‘z va xatti-harakatlarning ijobiy yoki salbiy xarakterdagi katta erkinligini namoyish qilishi mumkin.

2. Axborot almashuv jarayonida shaxslararo idrok qilishning o‘ziga xosligi. So‘zlovchi o‘zida bo‘lishini xohlagan fazilatlarini namoyon etishga intilishi suhbatdoshning fikriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

3. Ixtiyoriy va orzu qilingan muloqot. Foydalanuvchi ixtiyoriy ravishda muloqot o'rnatadi yoki tark etadi.

4. Atipiklik, g'ayritabiilik. Foydalanuvchi o'zini boshqa nuqtai nazardan namoyon qilishga, tarmoqdan tashqarida amalga oshirilmaydigan rollarni o'ynashga harakat qiladi.

5. Muloqot to'siqlarini bartaraf etish istagi. Virtual muloqotda shaxslararo hamda shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar keskinligi kuzatiladi. Foydalanuvchilar shaxsiy muloqotda ham, ijtimoiy muloqotda ham o'zlarini ancha erkin sezadilar va real hayotda ayto'lmasligi mumkin bo'lgan gaplarni ham yozaveradilar.¹

D.Rustamovning ushbu fikrlariga qo'shilgan holda, ijtimoiy tarmoqlarning yana bir asosiy xususiyatini yuqoridagilarning qatorida keltirib o'tsak to'g'ri bo'ladi. Bu belgi ijtimoiy tarmoqlarning makon tanlamasligidir. Ya'ni yer yuzining turli joylaridagi insonlar ham bir-birlari bilan xoh yozishmalar orqali, xoh ovoqli xabarlar orqali, xoh yuzma-yuz videochat orqali suhbat qurish imkoniyatiga ega. Bu ijtimoiy tarmoqlarning asosiy xususiyatlaridan biridir.

Bundan tashqari, internet muloqoti, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, muloqotning ijtimoiy va texnik imkoniyatlari kun sayin kengayib bormoqda.

Birinchidan, tarmoqlar odamlar o'rtasidagi shaxslararo muloqot uchun mo'ljallangan bo'lib, foydalanuvchilarning shaxsiy yozishmalari asinxron tarzda zamon va makon jihatdan chegaralanmagan. Masalan, chat yoki forum muloqotida ishtirokchi xohlagan paytida kirib o'z fikrini yozib qoldirishi yoki, boshqalarning yozib qoldirgan fikrlari bilan tanishishi mumkin. Alohida vaqt, imkon, sharoit talab qilmasligi muloqotchilar uchun muhim qulaylik hisoblanadi.

Ikkinchidan, axborot almashish uchun turli xil foto, video, ovoqli yozuv va hokazolardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Uchinchidan, katta va kichik virtual guruhlarda (sinf, fakultet, ish joyi, qarindoshlar, do'stlar, hamfikrlar va boshqalar) muloqot doirasi keng.

To'rtinchidan, kommunikatorlarning shaxsiy maqomni belgilash, muloqot erkinligi hamda lingvistik va audiovizual vositalarning cheksiz tanlovi.

Beshinchidan, xalqaro biznes imkoniyatlarini kengaytirdi, xususan, onlayn tijorat vakillarining mijozlar bilan uzluksiz (24/7) muloqoti kafolatlandi.

Oltinchidan, til iqtisodi uchun juda qulay sharoitlar mavjud bo'lib, fikrni qisqa shaklda (masalan, emodzi, piktogramma va h.k.) ta'sirli yetkazish imkonini beradi,

¹ Rustamov D. – Muloqotning intralingvistik va ekstralingvistik omillari hamda zamonaviy konsepsiyalari. –Andijon-2021

demak minimal ifoda vositalari orqali maksimal darajada axborot almashilishi mumkin.

Hozirda ijtimoiy tarmoqlar uchun son–sanoqsiz variantlar shu darajada ko‘paydiki, bu esa ularni integral belgilarini hisobga olgan holda taxminan guruhlariga bo‘lish va tasniflashni taqozo qiladi. Ularni quyidagicha guruhlariga bo‘lish va ularni ma’lumotlar bazasi xavfli va xavfsiz tarmoqlarga ajratish mumkin:

1. Muloqotga qaratilgan. Bu turli xil ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, ko‘rib chiqish va tanishish saytlari, shuningdek geo-aloqa bilan bog‘liq ilovalar va saytlar. Bunga misol tariqasida **telegram** ijtimoiy tarmog‘ini misol qilib keltirishimiz mumkin. **Telegram** — tezkor xabar almashish vositasi. Oddiy foydalanuvchilar matn xabarlashuvdan tashqari bir-birlariga har birining hajmi 2 GB gacha bo‘lgan tasvir, video, audio va har xil fayllar yuborishlari hamda ovozli va video qo‘ng‘iroqlarni amalga oshirishlari, kanal va guruhlarda ovozli hamda video chatlarda qatnashishlari mumkin. Bu tarmoqda foydalanuvchilar guruh ochishlari, kanal yuritishlari va turli xil botlar orqali insonlarga ma’lumotlar yetkazib berishlari mumkin bo‘ladi. Telegram ijtimoiy tarmog‘ining bunday imkoniyatlari turli xil siyosiy ziddiyatli ma’lumotlar, salbiy psixologik informatsiyalar, ekstremistik targ‘ibotlarni tarqatish va bunday fikrli insonlarni to‘plash uchun oson yo‘lni ochib berdi. Shu sababli bu tarmoqni xavfli tarmoqlar qatoriga kiritamiz. Biz uchun xavfli bo‘lib qolayotganining asosiy sababi: bizning, foydalanuvchilarning internet madaniyatiga ega emasligimizda. Albatta, bu tarmoqning imkoniyatlari kengligi va qulayligi sababli juda ko‘p foydalanuvchilar bazasiga ega va bu foydalanuvchilarning hammasi ham internet madaniyati, muloqot madaniyati haqida tushunchaga ega emas. Shu sababli, birinchi navbatda, odamlarda ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishimiz kerak.

2. Axborotni birgalikda tahrir qilish uchun ommaviy axborot vositalari. Ehtimol, eng mashhuri – **Vikipediya**. Vikipediya — ko‘p tilli, erkin, onlayn ensiklopediya. U ko‘ngillilar jamoasi tomonidan ochiq hamkorlik hamda vikiga tayanuvchi tahrir tizimi asosida yoziladi va yuritiladi. Ushbu loyiha 2001-yil 15-yanvarda mutaxassislarga mo‘ljallangan Nupediaga to‘ldiruvchi sifatida yaratilib, hozirda uni notijorat Wikimedia Foundation tashkiloti boshqaradi. Vikipediya bugunga kelib eng katta va eng ko‘p ko‘zdan kechiriladigan ma’lumot manbasiga aylandi. Hozirda bu bepul ensiklopediyada dunyoning 283 tilida 59 milliondan oshiq maqola bor. Vikipediyaning eng katta ingliz tili bo‘limi 6619387 ta maqolaga ega. Taqqoslash uchun, qog‘oz nashrdagi ensiklopediyalar orasida eng kattasi bo‘lmish *Encyclopædia Britannica* (Britaniya Ensiklopediyasi)dagi maqolalar soni 130 ming atrofidadir.

Bundan tashqari, Vikipediyaning juda mashhur bo'lib ketishi ortidan unga yondosh Vikiombor, Vikilug'at, Vikikitob, Vikiversitet, Vikiiqtibos hamda Vikiyangiliklar kabi loyihalar ham paydo bo'lgan. Unga yondosh Vikiombor, Vikilug'at, Vikikitob, Vikiversitet, Vikiiqtibos hamda Vikiyangiliklar kabi loyihalar ham paydo bo'lgan. Bu tarmoqda deyarli shaxsiy ma'lumotlar yoki turli yolg'onga asoslangan ma'lumotlar uchramaydi. Shuning uchun ham bu tarmoqni xavfsiz tarmoqlar qatoriga kiritdik. Shu bilan birga ta'kidlab o'tishimiz kerakki, bu tarmoqda O'zbek tilidagi ma'lumotlar yetarli emas. Bu tarmoqda O'zbek tilidagi lug'at va maqolalar sonini ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bir qator ishlab chiquvchilar o'z vakolatli ishlarini bajarish uchun ilovalarga birgalikda tahrir qilish imkoniyatini faol ravishda kiritmoqdalar. Bu **Yandex.Maps** kabi ilovalar, masalan (bu ilova ichida siz shahardagi voqealar va hodisalarni belgilashingiz mumkin va boshqa foydalanuvchilar sizning muharriringizni o'z xaritalarida ko'rishadi).

3. Multimedia (ijtimoiy media). Bu siz multimediali fayllarni almashishingiz va ularga sharh berishingiz mumkin bo'lgan portallar. Ko'pincha, bu sharhlash va tahrir qilish qobiliyatiga ega ma'lumotlarni saqlaydigan hosting saytlari. Bunday saytlardan mashhuri **Instagram** va **Facebook** tarmoqlaridir. **Facebook** (talaffuzi: *feysbuk*) — 2004-yilda Harvard universiteti talabasi Mark Zuckerberg tomonidan va qo'shni xonadagi Eduardo Saverin, Dustin Moskovitz va Chris Hughes tomonidan asos solingan ijtimoiy tarmoq. Bu tarmoq foydalanuvchilari turli postlar, rasmlar, media manbalarini o'zining auditoriyasiga tarqatish imkoniyatiga ega. Facebook foydalanuvchilari uchun nashr qilgan posti ostiga kim izoh qoldirishini tanlash imkoniyati mavjud. Tarmoqda maxsus menyu paydo bo'ladi. Unda foydalanuvchi keng va cheklangan profil egalariга izoh qoldirish imkonini beradi. Auditoriyani foydalanuvchining o'zi tanlaydi.

Ta'kidlanishicha, funktsiya izoh qoldiruvchi auditoriyani sozlash orqali istalmagan aloqalarni cheklash imkonini beradi. Shu bilan birga, tasmadagi izohlarning ko'payish ehtimolini kamaytiradi. Bundan tashqari facebook ijtimoiy tarmog'ida har bir foydalanuvchi o'zining fikrlari, qarashlarini erkin doimiy ravishda kuzatuvchilariga berib boradi va bu fikrlar kuzatuvchilari tomonidan doimiy ravishda tahlil va tanqid qilinib kelinadi. Bu esa, o'z navbatida, foydalanuvchilar ichidan xohlagan auditoriyani yig'ish va o'zining hamfikrlari bilan boshqa foydalanuvchilarga ta'sir o'tkazish imkoniyatini beradi. Bu tarmoq ham hozirgi kunda zararli ma'lumotlar bazasiga aylanib qolmoqda. Aytib o'tish joizki, bu tarmoqlarni zararli yo zararsizligi, birinchi navbatda o'zimizga bog'liq. Qanday ma'lumotni olish yoki olmaslik tanlovi o'zimizda.

Shu sababli biz informatsiyalarni saralay olish, ularni faqat o'zimizga foydalilarini ajrata olish ko'nikmasini shakllantirishimiz kerak bo'ladi.

Qanday ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmasin, unda foydalanuvchilar o'z fikrlarini va qarashlarini berib borish imkoniyatiga ega. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlardan juda ko'plab ma'lumotlar olish imkoniyati mavjud bo'lib qoldi. Bu ma'lumotlar foydalanuvchilarga foydali bo'lish bilan bir qatorda, inson ongiga ta'sir qilib insonga salbiy fikrlarni singdirish kuchiga ham ega. Yoki ayrim ma'lumotlar foydalanuvchilarni noto'g'ri yo'lga boshlashi ham mumkin. Bunday xabarlarga diniy ekstremizmga da'vat qiluvchi, xudosizlikni targ'ib qiluvchi, vatanga nafrat qo'zg'atuvchi xabarlarni misol qilib olishimiz mumkin. Bunday ma'lumotlarni, albatta, kinoya tarzda, tag ma'no orqali ifodalash ko'payib bormoqda.

Ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarni o'rganish, sintez qilish jarayonida shuni anglash mumkinki, tarmoq foydalanuvchilariga qanchalik ko'p imkoniyatlar ochib berilsa, ma'lumot almashish qanchalik soddalashtirilgani sayin xavfli ma'lumotlar bazasi ham shuncha ortmoqda. Bunday holatlarning oldini olish, bu kabi informatsiyalarning keng tarqalmasligi uchun ekspertlar, psixologlar tadqiqotlar olib borishmoqda, shu bilan birga Ichki Ishlar organlari bilan hamkorlikda lingvistik ekspertiza markazlari ham faoliyat olib bormoqda.

Adabiyotlar:

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
3. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
4. Internet ma'lumotlari